

**KALAMUSHLARDA EKSPERIMENTAL KRON  
KASALLIGI MODELIDA HAZM TIZIMI FIZIOLOGIK  
KO'RSATKICHLARI VA UNI KORREKSIYALASH**

*Sag'dullayeva Dilshoda Ibodulla qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*

*Sag'dullayev Kamoliddin Murodilla o'g'li*

*Toshkent Tibbiyot akademiyasi Klinik Ordenatori*

**Kalit so'zlari:** kron kasaligi, ekesperimental model, oqsil, glukoza, treglidserid, xolesterol

**Annotatsiya:** Ovqat hazm qilish sistemasida tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega va dolzarb hisoblanadi. Kron kasalligi surunkali yallig'lanishli ichak kasalliklaridan biri bo'lib, butun dunyo bo'yicha bu kasallikka chalinish darajasi o'sishda davom etmoqda. Global statistikaga ko'ra, Kron kasalligining tarqalishi so'nggi o'n yilliklarda ancha ortdi, ayniqsa, industrial rivojlangan davlatlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. AQSH va Yevropada Kron kasalligiga chalinish darajasi har 100 ming aholiga nisbatan taxminan 20-50 nafarni tashkil qiladi, ayrim mintaqalarda esa bu raqam 100 nafarga yetishi mumkin. AQSH va Kanadada Kron kasalligiga chalinish darajasi yuqoriligidcha qolmoqda. So'nggi yillarda Osiyo va Afrika mintaqalarida ham ko'payish tendensiyasi kuzatilmoxda.

Ovqat hazm qilish sistemasida tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega va dolzarb hisoblanadi. Kron kasalligi surunkali yallig'lanishli ichak kasalliklaridan biri bo'lib, butun dunyo bo'yicha bu kasallikka chalinish darajasi o'sishda davom etmoqda. Global statistikaga ko'ra, Kron kasalligining tarqalishi so'nggi o'n yilliklarda ancha ortdi, ayniqsa, industrial rivojlangan davlatlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. AQSH va Yevropada Kron kasalligiga chalinish darajasi har 100 ming aholiga nisbatan taxminan 20-50 nafarni tashkil qiladi, ayrim mintaqalarda esa bu raqam 100 nafarga yetishi

mumkin. AQSH va Kanadada Kron kasalligiga chalinish darjasini yuqoriligidan qolmoqda. So'nggi yillarda Osiyo va Afrika mintaqalarida ham ko'payish tendensiyasi kuzatilmogda.


**Tadqiqot metodlari va materiallari.** Kalamushlarda eksperimental KM yaratildi va fiziologik holati o'r ganilganda ularda guruh bo'lish hamda agressiya holatlari kuzatildi, tana vazni va harakatchanlik kamaydi ayrimlari nobut bo'ldi. Kalamushlarda eksperimental hosil qilingan KM ning fiziologik xolati, eksperimental modeldag'i kalamush qoni tarkibida aniqlangan oqsil, triglitserid, xolestirol va glukoza miqdorining tahlili, eksperimental modeldag'i kalamush ichagi tarkibida aniqlangan oqsil, triglitserid, xolestirol va glukoza miqdorining tahlili, sog'lom holdagi va sirka kislta yuborilgan kalamushlarda ichak, miya, o'pka va jigarning morfofunktional va gistologik holati rasmlar orqali ko'rsatilib o'tilgan. Bunda sog'lom va kasallangan hayvonlarning ichki organlaridagi qoni, jigar, o'pka, ichak o'zgarishlar yaqqol ko'ringan. Eksperimental KMda hazm timida so'r ilishda o'zgarishlar tufayli, tana vazni o'rtacha 2,3 martaga kamayishi aniqlandi.

### 1-jadval. Tajriba guruhlarida mass ko'rsatkichi.

Guruh	tajribagacha	5-kun	10-kun	15-kun	20-kun
Nazorat (n=5)	204±2,5	202±1,3	204±1,4	204±1,7	202±2,1
1 guruh (n=5)	202±1,7	190±2,6	182±3,1	175±4,2	156±1,9*
2-guruh (n=5)	202±1,7	185±2,6	176±3,1	167±4,2	146±1,9*
3-guruh (n=5)	202±1,8	192±1,6	195±2,7	186±5,4	177±5,7

*Izoh*-\* P<0,05; \*\*-P<0,01; \*\*\*-P<0,001

Bizda birinchi guruh sog'lom kalamushlar , ikkinchi guruh SK tasir etirilgan, uchinchi guruh 5-nitro-2-ASB va to'rtinchi guruh 5-amino-2-ASB moddalari tasir etirilgan kalamushlar guruhi deb olindi.




**6-rasm.** Eksperimental modeldagи kalamush qoni tarkibida aniqlangan oqsil

miqdori ( $M \pm m$ ;  $n=5$ ) Izoh: \* -  $P < 0,05$ ; \*\* -  $P < 0,01$ ; \*\*\* -  $P < 0,001$

Natijalarni tahlil qilish davomida olingan ma'lumotlar har bir guruhda o'rtacha oqsil miqdorining o'zgarishini ko'rsatadi.

**Nazorat guruhi** uchun o'rtacha ko'rsatkich **14.5 g/l** bo'lib, bu sog'lom sharoitda organizmdagi normal oqsil miqdorini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich boshqa guruhlar bilan solishtirilganda patologik sharoitlar oqibatida yuzaga kelgan farqlarni aniqlash uchun asos bo'ladi. **Birinchi guruhda**, Kron kasalligi (KK) bilan kasallantirilgan holda, oqsil miqdori **8.8 g/l** gacha tushib ketdi. Bu oqsil sintezining susayishi yoki ichakdagi ozuqa moddalarning yetarli darajada so'rilmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Kron kasalligida yallig'lanish jarayonlari ichak shilliq qavatini shikastlaydi, bu esa oziq moddalar so'riliшини izdan chiqaradi [64].


Eksperimental KM keltirib chiqarilgach qon tarkibida xolistirol aniqlandi: Bizda birinchi guruh sog'lom kalamushlar ,ikkinchi guruh SK tasir etirilgan, uchinchi guruh 5-nitro-2-ASB va to'rtinchi guruh 5-amino-2-ASB moddalarini tasir etirilgan kalamushlar guruhi deb olindi.



**7-rasm.** Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan xolestirol miqdori ( $M \pm m$ ;  $n=5$ ) Izoh: \*-  $P<0,05$ ; \*\*- $P<0,01$ ; \*\*\*- $P<0,001$

Natijalar tahlil qilinganda nazorat guruhida o’rtacha ko’rsatkich 10,925 mmol/l, ekanligi, birinchi guruhda 12,71333 mmol/l, ikkinchi guruhda 7,62 mmol/l, uchinchi guruh 4,124 mmol/l ekanligi ma’lum bo’ldi. Bir marta Kron kasalligi bilan kasallantirilgan guruhda xolestirol miqdorining 9,84% ga kamayganligi aniqlandi. Kron kasalligi bilan ikki marta kasallantirilgan guruhda esa xolestirol miqdori 35,3% ga kamayganligi kuzatildi.

Eksperimental KM keltirib chiqarilgach qon tarkibida trigilserin aniqlandi: Bizda birinchi guruh sog’lom kalamushlar, ikkinchi guruh SK tasir etirilgan, uchinchi guruh 5-nitro-2-ASB va to’rtinchi guruh 5-amino-2-ASB moddalari tasir etirilgan kalamushlar guruhi deb olindi.



**8-rasm.** . Eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan triglidserin miqdori ( $M \pm m$ ;  $n=5$ ) Izoh: \*-  $P<0,05$ ; \*\*- $P<0,01$ ; \*\*\*- $P<0,001$

Tahlil natijalariga ko‘ra, triglitserid miqdorining har bir guruhda kuzatilgan o‘zgarishlari quyidagicha baholandi: **Nazorat guruhi:** O‘rtacha triglitserid miqdori **14.344 g/l** bo‘lib, bu sog‘lom sharoitda organizmdagi yog‘ kislotalarining metabolizmi normal holatda ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich patologik sharoitlarda yuzaga keladigan o‘zgarishlar uchun asosiy taqqlaslama mezoni bo‘lib xizmat qiladi. **Ikkinchi guruh (surunkali Kron bilan kasallantirilgan):** Triglitserid miqdori **7.374 g/l** gacha pasaygan. Bu Kron kasalligida yog‘ kislotalarining metabolizmi izdan chiqishi, ichak shilliq qavatining yallig‘lanishi va yog‘larning so‘rilishi buzilishi bilan izohlanadi. Ushbu pasayish patologik jarayonlarning organizmga metabolik ta’sirini tasdiqlaydi[58]. **Uchinchi guruh (KK bilan kasallantirilgan va korreksiya berilgan):** triglitserid miqdori **10.774 g/l** ni tashkil etdi. Bu korreksiya vositasining yallig‘lanishni qisman kamaytirganligi va yog‘larning ichakda so‘rilishini tiklashga yordam bergenligini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, triglitserid miqdori hali ham nazorat guruhidan past darajada qolmoqda, bu esa metabolizmning to‘liq tiklanmaganligidan dalolat beradi. **To‘rtinchi guruh (KK va yana bir korreksiya vositasi berilgan):** Triglitserid miqdori **11.544 g/l** bo‘lib, bu uchinchi guruhga nisbatan bir oz yuqori ko‘rsatkichdir. Ushbu farq qo‘llanilgan korreksiya vositalarining ta’sir mexanizmidagi farqlar bilan izohlanishi mumkin. KK bilan kasallantirilgan va korreksiyalangan guruhda triglitserid miqdorining **39.5% ga ortganligi** bu moddiylarning metabolik jarayonlaridagi tiklanish bosqichini aks ettiradi. Bu, ehtimol, yallig‘lanish jarayonlarining kamayishi va ichakda yog‘larning so‘rilishi yaxshilanishining natijasidir.

**Xulosa.**Kalamushlarda eksperimental KM yaratildi va fiziologik holati o‘rganilganda ularda guruh bo‘lish hamda agressiya holatlari kuzatildi, tana vazni va harakatchanlik kamaydi ayrimlari nobut bo’ldi. Kalamushlarda eksperimental hosil qilingan KM ning fiziologik xolati, eksperimental modeldagi kalamush qoni tarkibida aniqlangan oqsil, triglitserid, xolestirol va

glukoza miqdorining tahlili, eksperimental modeldagи kalamush ichagi tarkibida aniqlangan oqsil, triglitserid, xolestirol va glukoza miqdorining tahlili, sog'lom holdagi va sirka kislta yuborilgan kalamushlarda ichak, miya, o'pka va jigarning morfofunksional va gistologik holati rasmlar orqali ko`rsatilib o`tilgan. Eksperimental KMda hazm timida so'rilishda o'zgarishlar tufayli, tana vazni o'rtacha 2,3 martaga kamayishi aniqlandi.